

ALISHER NAVOIY G`AZALLARI O`ZBEK ADABIYOTI MEZONI

*Elonova Sitorabonu  
Buxoro davlat universiteti Pedagogika instituti  
O`zbek tili va adabiyoti 2-bosqich talabasi*

**Annotation:** Ushbu maqolada o`zbek adabiyotida Alisher Navoiy asarlarining roli qay darajada ekanligi yoritilgan. G`azallaridagi o`xshatishlar tahlil qilingan. Alisher Navoiy asarlari hozirgi adabiyotda mezon qilinganligi isbotlangan.

**Abstract:** This article describes the role of Alisher Navoi's works in Uzbek literature. Similes in ghazals are analyzed. Alisher Navoi's works have been proven to be a benchmark in modern literature.

**Аннотация:** В данной статье описывается роль произведений Алишера Навои в узбекской литературе. Анализируются сравнения в газелях. Произведения Алишера Навои стали эталоном современной литературы.

Kalit so`zlar: nazm, estetik did, sharq adabiyoti, irfoniy talqin, adabiy muhit, vazn.

**Key words:** poetry, aesthetic taste, oriental literature, mystical interpretation, literary atmosphere, weight.

**Ключевые слова:** поэзия, эстетический вкус, восточная литература, мистическая интерпретация, литературная атмосфера, вес.

O`zbek mumtoz adabiyotining XV asrgacha bo`lgan tarixiy taraqqiyotiga yakun yasab, uni yanada yuqori pag`onaga ko`targan ulug` iste`dod sohibi, mutafakkir Alisher Navoiy o`z ijodiy faoliyati bilan jahon adabiyotining yirik namoyondalari safidan faxrli o`rin egallaydi. Sharq adabiyoti tarixining ko`p nasrlik taraqqiyoti davomida adabiy an`ana muhim o`rin egallaydi. Shoirlar salaflari ijodiy merosiga murojaat qilar ekanlar, avvalo, o`z estetik qarashlariga mos, ko`ngillariga yaqin, dunyoqarashlariga nisbatan uyg`un keladigan asarlarni maqbul ko`rganlar. Yana bir tomoni, o`rta asrlar estetikasi me`yoriy xarakterda bo`lib mavzular ko`lami hamda janrlar tabiatini avvaldan belgilangan qoidalar asosida voqe bo`lgan va bu holat o`sha davr kishilarining mental dunyoqarashi bilan izohlanadi. Biroq bu Sharq adabiyoti namunalari originallikdan xoli, adabiy an`analar doirasida qolib ketgan degan mulohazaga sabab bo`lmasligi kerak. Chunki har bir shoir ko`hna mavzuga murojaat etar ekan uni ma'lum darajada bo`lsa ham zamonasi bilan bog`lashga harakat qiladi. Bundan tashqari, shoir mavzuni estetik didi, adabiy muhitning yetakchi tendensiyalaridan kelib chiqib yoritishga urinadi hamda muayyan bir g`oyani ilgari suradi. Aynan shu sababli, bir mavzu doirasidagi asarlarni qiyosiy tahlil etishda, har ikki ijodkorning mushtarak yoxud xos jihatlarini ko`rsatish bosh mezon bo`lishi shart.



Alisher Navoiy ijodi Sharq adabiyotining boy adabiy an'analarini zaminida maydonga keldi va o'z navbatida keyingi davr adabiyoti rivojiga samarali ta'sir ko'rsata oldi. Ma'lumki, Navoiy nafaqat o'zbek tilida, balki forsiy tilda ham salmoqli ( forsiy tildagi taxallusi Foniylari ) meros qoldirgan. Uning forsiy merosi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ilmiy tadqiqotlar obyektiga aylandi hamda mutaxassislar tomonidan ijobiy baholandi. Shu o'rinda ayni shu masalani maxsus o'rgangan tojik adabiyotshunosi, akademik Abdug'ani Mirzoyev „Foniylari va Hofiz“ maqolasida: „Umuman Alisher Navoiyning mana shu ikki javobiya g'azalida yangi ma'no va nozik badiiy tasvir ma'lum darajada ko'p va mahorat bilan ishlatilgan bo'lib, bularni XV asr ikkinchi yarmidagi butunlay mustaqil va birinchi darajali forsiy she'rlariga aylantirgan. Bu holat „Foniylari“ devonida tasodifiy bir hodisa emas. Alisher Navoiyning forsiy-tojik she'riyatida ham ustozligi va yuksak mahorat ko'rsatganligini uning javobiya yoki mustaqil g'azallarining har birida, ma'lum darajada, aniq ko'rish mumkin“.[ 1 ]

Umuman olganda, Foniylari forsiy tilda deyarli barcha janrlarda, jumladan qasida janrida ham go'zal badiiyat namunalarini yaratgan. Shoirlarning qasidalarini navoiyshunoslar tomonidan ma'lum darajada o'rganilgan. Bu qasidalar orasida „Tuhfat ul- afkor“ o'zgacha mavqega ega va nisbatan ko'proq tahlilga tortilgan. [2] qizig'i shundaki, asar mashhur shoirlari Amir Xusravning qasidasiga tatabbu tarzida yozilganiga qaramay, Navoiy zamondoshlarining yuksak e'tirofiga sazovor bo'lgan. Masalan, Davlatshoh Samarqandiy „Tazkirat ush-shuar“ tazkirasida qasidadan katta parcha keltirib yozadi: „ garchi Amir Xusrav peshqadam Sohibi fazl bo'lsa ham, „Bahl ul-abror“da uning ma'rifat va haqiqatlar, daqiq xayoloti oriflar nazdida mukarram va azizdir. Biroq bu ulug' amir ( gap Navoiy xususida) ham ma'nolarni cho'qqisiga chiqargan bo'lib, shoirlilik, suxandonlik, o'ziga xos taxayyulni ko'rsatishda xato qilmadi“ [3] Yana bir jihatni Xusrav Dehlaviyning „Daryoyi abror“ qasidasini XV asr Hirot adabiy muhitida mashhur bo'lib, davrning nomdori shoirlari Abdurahmon Jomiy, Sulton Mahmud Mirzo, Shayxim Suhayliy, binoiy unga javob yozganlar.

Bular orasida faqat Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy asarlari bizgacha to`liq yetib kelgan. [4]

Afg'onistonlik olima Shafiqa Yorqin xonim Sharq adabiyoti, jumladan, fors-tojik adabiyoti bo'yicha taniqli mutaxassis. Olima ma'lum muddat respublikamizda istiqomat qilgan yillari davriy matbuotda maqola, adabiy tarjimalar, she'rlari bilan muntazam ravishda qatnashib turgan. Uning „Izdoshlikmi yo fikrdoshlik”maqolasi Afg'onistonda Oydin jurnalida chop etilgan.

Umuman olganda, Navoiy ijodida mantiqiy dalillash bosh estetik prinsip bo'lib, bu haqida o'z vaqtida navoiyshunos Yoqubjon Is'hoqov shunday yozgan edi:

„Xamsada mantiqiy asoslanmagan birorta voqeа yoxud detalni topa olmaysiz. Har bir epizod yoki voqeа konkret bir sababning oqibati sifatida yuzaga chiqadi va mantiqiy zamin o'quvchida zarracha shubha tug'dirmaydi. [5]

Bu yerdagи „mantiqiy zamin” degan tushunchani biroz aniqlashtirish lozim. Ma'lumki, hayotiy mantiq borliqdagi voqeа va hodisalarning sababiy munosabatlariga suyansa, badiiy mantiq ham hayotiy mantiqdan kelib chiqadi va shu bilan birga badiiy shartlilik qonuniyatlariga asoslanadi.

Navoiy ijodida ruboiylar ham alohida o'rин egallagan. „Nazm ul- javohir” (Gavharlar tizmasi) asari, asosan, tasavvuf g'oyalari targ'ibiga bag'ishlangan. Unda tasavvufdagi asosiy tushuncha va tamoyillar nihoyatda sodda va tushunarli tilde talqin qilinadi. Masalan, „Otangga rioyer qil – bolangdan qaytadi” hadisi uchun quyidagi ruboiy keltiriladi:

Farzand ato qullug'in chu odат qilg'ay,  
Ul odатila kasbi saodat qilg'ay,  
Har kimki atog'a ko'p roiyat qilg'ay,  
O'g'lidin ang'a bu ish siroyat qilg'ay.

Adib otaga xizmat qilishning sharofatini birinchi ikki misrada ko'rsatib bermoqda. Keying misrada esa yana shu fikrga qaytilgandek ko'rindi, ammo endi natijada ayirma bor. Har kim ekkanini o'radi, deganlaridek, otaga qilingan hurmat va ehtirom, albatta, qaytadi, ammo uni qaytaruvchi odam mutlaqo boshqa bo'ladi. Mana shu boshqa odam esa keying avlod vakili – otasiga yaxshi munosabatda bo'lgan o'g'ilning farzandlaridir.

Yoki insoniy fazilatlar mavzusida boshqa bir to'rtlik yaratiladi:

El qochsa birovdin, el yomoni bil oni,  
Ahvolida idbor nishoni bil oni,  
Fe'l ichra ulus baloyi joni bil oni,  
Olam elining yamon yamoni bil oni.

Demak, ko'pchilik (el) bir fikr bildirar ekan, bu tasodifiy bo'lmaydi. Ular bir kishidan o'zini olib qochsa, o'sha odam elning yomoni bo'ladi. Buning sababi esa o'sha kishining fe'l- atvordin ( ahvolida idbor nishoni). Bunday odamning yomonligi

faqat o'zi uchun emas, balki barcha uchun ham zararlidir. Adib uni „ulus baloyi joni”, ya’ni „elning boshiga bitgan balo” sifatida ta’riflamoqda. Tugal xulosa esa oxirgi misrada ifodalangan. Bunday odam o’zining yoki o’zi mansub bo’lgan elninggina emas, balki butun „olam elining yomoni”dir. Shoирning „yamon” so’zini ikki marta qo’llashi orqali aytmoqchi bo’lgan fikri ikki marta ta’kidlanyapti.

Bundan tashqari, Navoiy “Xamsa”sini o’rgatishda ko‘p bilim va malakaga ega bo‘lish lozim, chunki undagi mazmun-mohiyat, voqeа-hodisalar tizimi, obrazlar silsilasi, so‘z, jumla talqini, umuman, g‘oyaviy-badiiy nafosatini tushunib yetish yetarli darajada tayyorgarlikni talab etadi. Maktab o‘quvchilari, oliv o‘quv yurti talabalarining bu masalada anchagina qiyinchiliklarga duch kelishi tayin. Shu sabab ham “Xamsa”dek ulkan asarni yaxshiroq anglash, baytlar mohiyatini his qilish uchun keng qamrovli bilim sohibi bo‘lish talab qilinadi. Arab, fors, eski o‘zbek tili so’zlarining ma’nosini bilish, dunyo mamlakatlari, ularning o‘rni, geografik joylashuvi, payg‘ambarlar obrazlari, islomiy g‘oyalari, diniy talqinlar uchrashi –Qur’oni karim sabog‘ining muhimligi, turli sulolalar, podsholar, tarixiy kishilar nomlarining mavjudligi – tarix fanidan yetarlicha xabardorlik, tarixiy afsona va hadislardan, tasavvuf, falsafa va boshqa fan sohalariga doir ilmlardan ma‘lum darajada xabardorlikni talab etadi. Shaxs nomlari, obrazlar tizimini taniy olish, bu timsollar haqida yetarlicha ma‘lumotga ega bo‘lish ham Navoiy asarlari mohiyatini to‘liqroq anglab yetishga zamin bo‘ladi.

“Xamsa” asari XV asrdan to shu kungacha bo‘lgan muddatda o‘z qadr-qimmatini zarracha ham yo‘qotmagan asl asarlar sirasiga kiradi. Bejizga bu an'anaviy merosga zamondosh ijod ahli tomonida yuksak baho berilmagan. Bu baholar qiymatini esa asarni anglab, tushunib mutolaa qilgandagina anglash mumkin.

Navoiy lirkasida odam va olam, hayot va uning go’zalliklari madh etiladi. Adib lirkasida yuksak insonparvarlik, ezgulik g‘oyalari ruboiy orqali ham aks etgan. Yana qo’shimcha qilib aytish mumkinki, agar Navoiy boshqa janrlarda ijod qilmasdan, faqat ruboiylari tufayli ham mana shunday ulkan obro’ va martabaga ega bo‘laverardi.[6]

Adib she’riyatining mavzu qamrovi nihoyatda keng. Ularda falsafiy, ijyimoiy-siyosiy, axloqiy-ta’limiy fikr va mulohazalar yuksak badiiylik bilan ifoda etilgan.

Navoiyning vatan va vatanparvarlik haqidagi she’rlari faqat o’sha davr kishisining kechinmalari sifatidagina emas, balki bugungu avlod, xususan, yoshlar uchun ham ibrat va namuna maktabi bo’lishi tabiiydir.

G’urbatda g’arib shodmon bo’lmas emish,  
El anga shafiq-u mehribon bo’lmas emish,  
Oltun qafas ichra gar qizil gul bitsa,  
Bulbulg’a tikandek oshiyon bo’lmas emish.

Navoiy ruboiylari tuyg'ular va fikrlarning yetukligi, tabiiylici, go'zal va ta'sirchanligi bilan ajralib turadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirzoyeva A. „Foniylar va Hofiz”. 1968, 64-bet.
2. Qasida xususida S. Ayniy, A. Fitrat, Sh. Shukurov va boshqalar munosabat bildirgan.
3. Sirojiddinov Sh. A. Navoiy manbalarining qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili. 2011, 225-bet
4. Mirzoyev A. M. „Kamal ad-din” 1976.33-34-bet.
5. Y. Is'hoqov. „Xamsa” poetikasiga doir.
6. Abdurasul Eshonboboyev. „Sharq yulduzi” jurnali, 2016-9
7. Navoiy asarlarining izohli lug‘ati. T: G‘afurG‘ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1972.
8. Navoiy asarlari uchun qisqacha lug‘at. T: Fan, 1993